



# PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMU JURNAL

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 6, Issue 11



Exact  
Natural  
Medical  
Technical  
Economics  
Philological  
Pedagogical  
Social sciences  
and humanities



## Vol. 6 No. 12 (2023): PEDAGOG



"PEDAGOG" mualliflar va o'qituvchilarga o'quv amaliyoti va boshqa sohalarida o'z ilmiy maqolalarini nashr etish imkoniyatini beradi. "PEDAGOG" jurnali bir oyda bir marta ko'rib chiqiladigan ochiq kirish jurnalidir. Jurnal axloqiy ochiq nashr etikasi va amaliyotiga amal qiladi. Nashr qilish uchun qabul qilingan barcha maqolalar, uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ikki tomonlama ko'rib chiqish jarayonidan o'tadi. Jurnal konstruktivizm, hamkorlik, yaxlitlik, aks ettirish va so'rovga asoslangan o'qitish hamda o'qitishning ko'p tarmoqli sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

**Published:** 2023-12-15

### Articles

#### САКРАЛ ЛАНДШАФТЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ – МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ.

Холиқов Р.Ў

1-6

[PDF](#)

#### INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Radjabova Dilafro'z Amanturdiyevna

7-10

[PDF](#)

#### DUAL TA'LIMI ASOSIDA TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Baymurova Nigora Rahimovna

11-14

[PDF](#)

#### BOSHLANG'ICH SINFLARDA IMLO XATOLAR USTIDA ISHLASH

Djumayeva Moxira Abdugafforovna

15-17

[PDF](#)

#### TARBIYA DAPSLAPIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING IJTIMOY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Hakimova Nargiza Supxonovna

18-23

[PDF](#)

#### TURIZM YO'NALISHIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA INGLIZ TILINI OQITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI TAHLILI

Toshmatova Sitara Azizbek qizi

24-29

[PDF](#)

#### OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA FANLARARO HOSIYATNI KIRITISH

Sardorbek Jabbarov

30-34

[PDF](#)

#### USING AUTHENTIC SONG IN DEVELOPING THE SOCIOCULTURAL COMPETENCE OF TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Zukhra Allaberdievna Zulfiqorova

35-41

PDF

### **ERMAK VA NA'MATAK O'SIMLIGINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARINI O'RGATISH ORQALI TALABALARNING XALQ TABOBATIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH.**

M A Abdurahimova , R.T. Muratova  
42-46

PDF

### **О ПРИБЛИЖЕНИИ Т-НОРМАЛЬНЫХ РЕШЕНИИ ОПЕРАТОРНЫХ УРАВНЕНИЙ**

Имомов Адаш  
47-57

PDF

### **MUHAMMAD NIYOZ NISHOTIYNING "XUSNI DIL "DOSTONIDA TA'LIMiy-AXLOQiy QARASHLAR**

Qolandarova Dilafuz Karimovna  
58-60

PDF

### **KUTUBXONA-AXBOROT SOHASINI IT SOHALARI BILAN BIRLASHIRISH VA FOYDALANISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH.**

Janazoqova Shamsiya Nizomjon qizi.  
61-66

PDF

### **THE WAYS OF TRANSLATING UZBEK REALIA INTO ENGLISH**

Rahmatullayeva Malika Bakhodir qizi,, D.V. Subanova  
67-69

PDF

### **АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНКОТЕРМС ВЕРСИИ 2020 ГОДА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Sagitov Azat  
70-75

PDF

### **WORD FORMATION AND THE OBJECT OF ITS DESCRIPTION**

M.F. Aysina  
76-79

PDF

### **OZBEK SHEVALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI**

Karimova Dilafuz Baxtiyor qizi  
80-84

PDF

### **THE RELATIONSHIP BETWEEN CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE (COPD) AND CARDIOVASCULAR DISEASE (CVD)**

Davlatov Shohjaxonbek Qurbonbek o'g'li  
85-96

PDF

### **COMPARATIVE ANALYSIS OF INTONATION OF STATEMENTS IN ENGLISH AND UZBEK**

Shoimova Gullola  
97-101

PDF

### **DIE FRAGE DER KONJUNKTION „MIT“ IN DER USBEKISCHEN LINGUISTIK**

M.N. Kasimowa  
102-107

PDF

### **СТИЛИСТИКА КАК МЕЖУРОВНЕВАЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ДИСЦИПЛИНА.**

Исраилова Камилла Исмаиловна  
108-111

PDF

### **БОЛЕЗНЕЙ КУЛЬТИВИРУЕМЫХ И ДИКОРАСТУЩИХ ЗЛАКОВ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Эшонкулов Нажим

112-115

 PDF

### **ЗАМАЎШАРИЙНИНГ ИЛМИЙ- ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ**

Айтбаев Мансурбек Юсупович

116-121

 PDF

### **KURASHCHILARNING MUKAMMALLIK DARAJASI TAKOMILLASHTIRISHNING OMILLARI.**

Yoʻldoshev Ilhomjon Shavkat oʻgʻli

122-128

 PDF

### **KURASHCHILARDA KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.**

Yoʻldoshev Ilhomjon Shavkat oʻgʻli

129-135

 PDF

### **TORAKOSKOPIK OPERATSIYALARDA GEMODINAMIK KO'RSATKICHLARNI OPTIMALLASHTIRISH.**

Mahamadov Dostonbek Rahmatullo o'g'li.

136-138

 PDF

### **МОНИТОРИНГ И КОРРЕКЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОГО ПЕРФУЗИОННОГО ДАВЛЕНИЯ ПРИ ЧЕРЕПНО МОЗГОВОЙ ТРАВМЕ**

Абдумуталов Самандар Рузикулович, Абдумуталов Самандар Рузикулович

139-141

 PDF

### **O.GENRI HIKOYALARIDA MOTIVNING BADIY FUNKSIYALARI**

Ilhomova Dilnoza

142-144

 PDF

### **OILA MUQADDAS-DARGOH**

Qodirova Tursunxon, Yulchiyeva Umidaxon

145-148

 PDF

### **ЧИЗМАЧИЛИК ТАРИХИ**

Мирзаходжаев Баходир Анвар ўгли

149-151

 PDF

### **SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARDA TOMCHILATIB SUG'ORISH TIZIMLARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR**

M. Chuliyev, Sh.R. Meyliyeva, Safarova Nilufar Vohidovna

152-154

 PDF

### **"AVESTO" - THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE PEOPLE**

Tleumuratova N.M

155-158

 PDF

### **ДАЛА ПЕЧАГИ ЭКСТРАКТИНИ САҚЛОВЧИ ГИДРОГЕЛНИНГ ТЕРМИК КУЙИШ ЖАРОХАТЛАРИДА РЕГЕНЕРАЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ**

Якубова Умида Бахтияровна

159-163

 PDF

### **ARQOQ TUKLI GILAM ISHLAB CHIQRISHDA CHIQUINDI SARFI TAHLILI**

Siddikov Patxillo Siddiqovich, Yusupova Nodira Baxtiyarovna, Nazarova Dilrabo Tolibjanovna

164-166

 PDF

### **PISHITILGAN TABIIY IPAK IPLARIDAN KOSTYUMBOP TO'QIMALARNI LOYIHALASH**

Шоира Умарова, Юсупова Нодира, Патхилло Сиддиқов  
167-170

 PDF

#### **DAVLAT TIJORATINING ROVOJLANISHIDA TURIZMNING O'RNI.**

Ismoilov Feruz SHokirovich  
171-173

 PDF

#### **IMPLEMENTATIONS AND CHALLENGES IN ORGANIZING DISTANCE LEARNING.**

Aziza Normatova  
174-179

 PDF

#### **GENERAL AND THEORETICAL BACKGROUND ABOUT DISTANCE LEARNING OF TEACHING ENGLISH**

Normatova Aziza Diyor qizi  
180-184

 PDF

#### **A COMMUNICATIVE TEACHING APPROACH FOR LANGUAGE**

Khilola Pulatova  
185-189

 PDF

#### **COMMUNICATIVE CONDITIONS IN TEACHING ENGLISH**

Rakhmatullaeva Shakhnoza Abdurazok kizi  
190-195

 PDF

#### **THE POSITIVE EFFECTS OF USING MIND MAPPING FOR ENGLISH VOCABULARY TEACHING**

Jumanova Khusnora Abduvali kizi  
196-200

 PDF

#### **THE ROLE OF SOCIAL NETWORKING PLATFORMS TO ENHANCE WRITING SKILLS IN ADULT LEARNERS IN EFL**

Berdibekova Magrurabonu Ulugbek kizi  
201-205

 PDF

#### **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MASHHUR OMMAVIY AXBOROT VAKILLARI, SIYOSATCHILAR VA ULARNING PERIFRAZADAGI ISMLARI**

Allayorova Shaxnoza Primkulovna  
206-210

 PDF

#### **INGLIZ VA O'ZBEK OLIMLARINING PERIFRAZALARNING TASNIFI BO'YICHA TADQIQOTLARI.**

Allayorova Shaxnoza Primkulovna  
211-214

 PDF

#### **THE APPEARANCE OF UZBEK AND WORLD TRANSLATION SCHOOL**

Hujumova Kamola Obidjon qizi  
215-219

 PDF

#### **ЗАМОНАВИЙ ЎҚУВ АДАБИЁТЛАРИНИ ЯРАТИШГА БЎЛГАН ЁНДОШУВЛАР**

Насиров Илхам Закирович  
220-226

 PDF

#### **CHIGITNI SARALASH VA TOZALASH TEXNOLOGIYASI BO'YICHA CHET EL TEXNOLOGIYASI BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR**

Kamoliy Islomjon Ilxomjon o'g'li , Madiyarov Oqiljon, Komilov Shuxratjon Raximjon o'g'li , Muradov Rustam Muradovich  
227-230

 PDF

## ТИПЫ ЛИТЕРАТУРНОГО ГЕРОЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПРОЗЫ

Наимова Гулхаё Анвар кизи

231-235

[PDF](#)

## БҮЮК МУҲАДДИС - АБДУЛКАРИМ САМЪОНИЙ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ

Юсупов Халилulloҳ Саъди ўғли

236-240

[PDF](#)

## “АДАБУ-Л-ИМЛО ВА-Л-ИСТИМЛО” АСАРИНИНГ ХУРОСОН ИЛМИЙ МУҲИТИДА ТУТГАН ЎРНИ

Юсупов Халилulloҳ Саъди ўғли

241-244

[PDF](#)

## HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Norov Nodir Jo'rayevich

245-252

[PDF](#)

## KONSTITUTSIYA – IJTIMOIIY HAYOTNING DEMOKRATIK TAMOYILI

Atashayxov Abdurahid Abdushukurovich

253-255

[PDF](#)

SJIF 2023



Indexing

Google Scholar

ICI WORLD  
of JOURNALS

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA  
MA’NAVY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Norov Nodir Jo‘rayevich**

*Alfraganus universiteti magistranti*

*nodirjurayevich@gmail.com*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Yoshlar bilan ishlash Ma’naviyat va ma’rifat ‘bo‘limi boshlig‘i*

**Annotatsiya:** *Maqolada yoshlarda ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda ajdodlar ilmiy merosining ahamiyati, xususan Koshifiyning qarashlaridan bu masalada foydalanishga oid taklif-tavsiyalar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ilmiy meros, fazilat, ixlos, shukr, sabr, rizo, tavakkul, hayo, pokizalik, adab, oliyhimmatlik, jiddu jahd, sobitqadamlik, adolat, avf, chiroyli xulq va muloyimlik, shafqat va marhamat, hayrat.*

#### **KIRISH**

Insoniyat tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan Markaziy Osiyo bashariyat ma’naviy taraqqiyotida o‘zining nodir asarlari bilan beminnat xizmat qilgan ko‘plab allomalarni yetishtirib berdi. Qomusiy mutafakkir allomalarimiz ilm-fan va madaniyatning barcha sohaları bo‘yicha ulkan meros qoldirib ketdilar. Ayniqsa, ajdodlarimiz tomonidan sharqona odob-axloq falsafasiga oid yozib qoldirilgan noyob asarlar xorij olimlar tomonidan hamon yuqori baholanib kelinmoqda. Axloq falsafasiga oid mukammal asar yaratgan allomalardan biri Husayn Voiz Koshifiydir.

Alloma ilmiy merosida axloq falsafasi muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning barcha asarlarida sharqona axloq odob etiketlarini targ‘ib etishga katta ahamiyat qaratadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Allomaning axloq falsafasini bayon etishida rasionallik tamoyiliga tayanishi ilmiy merosidagi yutuqdir. Husayn Voiz Koshifiyning fikricha kishi o‘zining axloqiy fazilatlarini doimo takomillashtirib borishi kerak, ya’ni aql, farosat va idrok orqali o‘z-o‘zini tarbiyalab borish lozimi. Alloma buni quyidagicha ifoda etadi: “Zero, insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go‘zal va hamda xulq-atvorli, fazilatli qilib etishtirish mumkin» [1]. Shuning uchun axloq odob qoidalari bayon etilgan asarlarida axloqiy fazilatni tushuntirar ekan kishilarni har birini axloqiy fazilatlarni o‘zida tarbiyalab borishga va mazkur fazilatlarga qarshi bo‘lgan illatlardan xalos bo‘lishga chaqiradi.

Uning salmoqli ilmiy merosi orasida axloq falsafasiga oid «Axloqi Muhsiniy» asari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarni SHarq axloq falsafasining nodir durdonasi deb

baholash mumkin. Koshifiy mazkur asarida axloq odob mavzusida yaratilgan ko‘plab asarlarni chuqur tahlil etib, o‘zining xulosalari bilan mazmunan boyitadi.

Mazkur asar 1495 yilda yozilgan bo‘lib, Husayn Voiz Koshifiy Sulton Husayn Mirzoning o‘g‘li, Marv hukmdori Abdumuhsin Mirzoga (1472-1507/08) bag‘ishlab yozgan [2].

Koshifiy shahzoda Abulmuhsin faoliyatiga ijobiy baho beradi, uning timsolida ideal hukmdorni ko‘radi. Asarning yozilish sababini izohlar ekan, shahzoda Abulmuhsinning ijobiy axloqiy xislatlariga tahsin aytib, «mulozimlarning yaxshi xulqi va maqbul xislatlaridan bir necha kalimani bayon varag‘iga yozishni hohladim. toki o‘zga podshohlar avlodiga ibratnoma va dasturilamal bo‘lsin. Shunday xayol bilan bu risolani nomini «Axloqi Muhsiniy» deb yozishga qaror qildim»[3]. Asarning 40 bobdan iborat ekanligini esa quyidagicha izlaydi: «Podshoh 40 ta xislatga rioya qilishi zarur bo‘lib, ulardan ayrimlari podshoh bilan Haq (pok va oliy) o‘rtasida, ba‘zilari podshoh bilan xalq orasida bo‘ladigan sifatlardir. Bu 40 ta sifat risolaning 40 ta bobida munshiyalar takallufidan holi tarzda bayon etilgan. Har bir bobda odamlar xulqi haqida o‘z vaqtida eshitilgan va yozib olingan rivoyat va shunga munosib hikoyatlar keltirilgan» [4].

Bu 40 ta bobda quyidagi ibodat, ixlos, duo qilish, shukr, sabr, rizo, tavakkul, hayo, pokizalik, adab, oliyhimmatlik, bir ishga ahd qilish, jiddu jahd, sobitqadamlik, adolat, avf, yuvoshlik, chiroyli xulq va muloyimlik, shafqat va marhamat, hayrat va yaxshi ishlar, judi saxovat va ehson, tavoze, omonat va diyonat, vafo va ahd, rostgo‘ylik, hojat ravo qilish, ohistalik va shoshilmaslik, kengash qilish, andisha qilish va har ish oxirini ko‘zlash, shijoat, g‘ayrat va hamiyat, siyosat, bedorlik va ogohlik, farosat, sir saqlash, fursatni g‘animat bilish, huquqqa rioya qilish, yaxshilar bilan bilan hamsuhbat bo‘lish, yomon kishilardan yiroq yurish, mulozimlar tarbiyati va odobi kabi mavzularni yoritishga harakat qilingan. Husayn Voiz Koshifiy bu 40 ta xislatlarni inson faoliyatidagi ahamiyatini asoslab berar ekan, har bir hukmdorni bu xislatlarga ega bo‘lishga chaqiradi. Bayon etilgan xislatlar faqat hukmdorlar uchun emas, balki har bir fuqaro uchun ham zarur jihatlar bo‘lganligi, mavzular qiziqarli va ibratli rivoyat va hikoyatlar bilan bayon etilganligi bois SHarqning eng mashhur pand nasihat mavzusidagi axloqiy qomusnoma sifatida barcha sevib mutaola qiladigan asarlardan biri bo‘lgan.

«Axloqi Muhsiniy» asarida bayon etilgan barcha mavzular kishini yaxshi xulqqa chorlagani va bag‘rikenglik g‘oyalarini keng targ‘ib qilganligi bois har bir o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi. SHaxs ma’naviyatida shukr va sabr qilishlik va uning fazilatlari bayon etilib, hayo, pokizalik, oliyhimmatlik, sobitqadamlik, adolatli bo‘lish, avf etish, shafqatli va marhamatli bo‘lish kabi axloqiy fazilatlari zarurligini uqtirib o‘tadi[5].

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shijoat, g'ayrat, fursatni g'animat bilish kishi uchun zarur fazilat ekanligiga alohida to'xtalib o'tadi. Husayn Voiz Koshifiy o'quvchini farosatlilikka, sir saqlashlik, huquqqa rioya qilishlik, doimo yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lishlikka va yomon ishlardan yiroq bo'lishga chaqiradi. Husayn Voiz Koshifiy mazkur asarida har bir mavzuni yoritishda "Qur'on" oyatlari va hadislardan namunalar keltirish bilan cheklanmaydi, balki, Sharq xalqlarining buyuk mutafakkirlari Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumi, SHayx Sa'diy, Bahouddin Naqshbandlarning nazmlaridan lavhalar keltiradi.

SHuningdek har bir mavzuning mohiyatini yoritishda ibratli rivoyatlarni keltirib o'tadi. Rivoyatlarda ko'pincha turli xil millat va din vakillaridan iborat tarixiy shaxslar va ular hayoti davomida (bayon etilayotgan mavzuga oid) sodir bo'lgan voqealar ibrat tarzida bayon etiladi.

Xususan, Aflotun, Arastu va Misr, Rum, Fors hukmdorlari hamda vazirlari bilan bog'liq hikoyalar asarda o'rin olgan. Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» asarida bayon etilgan barcha mavzular kishini yaxshi xulqqa chorlagani bois har bir o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Mavzularda shukr va sabr qilishlik va uning fazilatlarini bayon etilib, hayo, pokizalik, oliyhimmatlik, sobitqadamlik, adolatli bo'lish, avf etish, shafqatli va marhamatli bo'lish kabi axloqiy fazilatlar targ'ib etiladi.

Shunindek, Koshifiy kishi faoliyatida chiroyli xulq va muloyimlik fazilatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Omonat va diyonat, vafo va ahd, rostgo'ylik kabi axloqiy fazilatlar xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Ohistalik va shoshilmalik, andishalilik kabi xislatlarni kishi axloq odobida tutgan o'rnini bayon etadi. SHijoat, g'ayrat, fursatni g'animat bilish kishi uchun zarur fazilat ekanligiga alohida to'xtalib o'tadi va o'quvchini farosatlilikka, sir saqlashlik, huquqqa rioya qilishlik, doimo yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lishlikka va yomon ishlardan yiroq bo'lishga chaqiradi.

Xususan, «Axloqi muhsiniy» asarida bayon etilgan barcha mavzular kishini yaxshi xulqqa chorlagani va bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib qilganligi bois har bir o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Mavzularda shukr va sabr qilishlik va uning fazilatlarini bayon etilib, hayo, pokizalik, oliyhimmatlik, sobitqadamlik, adolatli bo'lish, avf etish, shafqatli va marhamatli bo'lish kabi axloqiy fazilatlarini targ'ib etiladi.

Shunindek, Koshifiy kishi faoliyatida chiroyli xulq va muloyimlik fazilatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Omonat va diyonat, vafo va ahd, rostgo'ylik kabi axloqiy fazilatlar xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Ohistalik va shoshilmalik, andishalilik kabi xislatlarni kishi axloq odobida tutgan o'rnini bayon etadi. Shijoat, g'ayrat, fursatni g'animat bilish kishi uchun zarur fazilat ekanligiga alohida to'xtalib o'tadi. Koshifiy o'quvchini farosatlilikka, sir saqlashlik, huquqqa rioya qilishlik, doimo yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lishlikka va yomon ishlardan yiroq bo'lishga chaqiradi. Husayn Voiz Koshifiy o'zining aksariyat asarlarida sharqona axloq-odob qoidalarini targ'ib qiladi. Xususan, "Axloqi Muhsiniy" asarining asosiy g'oyasi inson faoliyatida yaxshi xulqni targ'ib etishdan iboratdir. Asar muqaddimasida bu xususida alloma

shunday yozadi: “Hakimlar chiroyli xulq shunday bir yo‘lki, bu yo‘ldan yurmay turib, izzat va sharif manziliga etib bo‘lmaydi va bu yo‘lga qadam qo‘ymay turib vujud raxtini hayvonot biyobonidan insoniyat doril mulkiga etkazib bo‘lmaydi, deydilar...Odamlarning qay birlarida chiroyli xulq va yoqimli xislatlar namoyon bo‘lsa, shu kishilar zebo ko‘rinadilar”[6]. Koshifiyning mazkur asarida, asosan, kishilarning ijtimoiy faoliyatidagi axloqiy fazilatlarning falsafiy tahlili ishlab chiqilgan.

2017-2021yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish” etib belgilangan. Bu masala boshqaruv madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki davlat boshqaruvida siyosat ham mazmunan va shaklan madaniy hodisa bo‘lgani holda, ularning mohiyatan madaniy hodisa darajasiga ko‘tarilishi ko‘proq ahamiyatlidir. Boshqaruv madaniyati bu - ma‘muriy, ijtimoiy va psixologik kabi boshqaruv vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi rahbarning shaxsiy, professional va ishchanlik sifatlarining sintezidir. Uning samaradorligi bevosita axloqiy fazilatlarga bog‘liqdir. Sharq va G‘arb mutafakkirlari qadimdan boshqaruv madaniyatiga e‘tibor qaratib kelishgan, bu sohaga oid ko‘plab asarlar yozib qoldirishgan, shaxs, jamiyat va davlat munosabati masalasida o‘z tajribasidan kelib chiqib ilmiy bahs olib borishgan. Ular orasida Husayn Voiz Koshifiyning alohida o‘rni bor.

Husayn Voiz Koshifiy taxminan 1440 yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzavor shahrining Bayhaq kentida tug‘ilgan. YOshligidanoq voizlik, so‘z san‘ati bilan shug‘ullanadi, Sabzavorda o‘zi yosh bo‘lsa–da, ko‘zga ko‘ringan voiz bo‘lib taniladi. Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muxsiniy”, “Axloqi Karim”, “Risolati Xotamia”, “Mavohibi oliya” kabi asarlari nemis, ingliz, fransuz, turk, fors, arab, grek tillariga tarjima qilingan. Asarlari kataloglarini Yevropaning taniqli olimlari A.Kraft, V.Perch, O.Omer, G.Ete,X.Re, E.Rexatzek, F.Karata, Daorn, E.Braun, E.Bloshe, A.Arberlilar tuzishgan. Bu fikrlarning o‘zi Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ijodi, axloqiy-falsafiy merosini o‘rganish g‘oyat muhimligini ko‘rsatadi. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlarini vujudga kelishi va shakllanishida mamlakatda davom etayotgan toj–taxt uchun kurashlar, xalqqa ko‘rsatilayotgan adolatsizliklar, nopokliklar va boshqa ko‘pgina salbiy jihatlaro‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Voiz Koshifiy voiz sifatida har kuni oddiy xalq ichida yurdi, ularning hayoti bilan yaqindan tanishdi, orzu–armonlarini, noroziliklari sabablarini o‘rgandi. Oddiy xalq adolatsizlikning qurboni bo‘layotganini, aldashlar, ayyorliklar, ta‘magirliklar kuchayganini har qadamda uchratadi. SHu sabab asarlari orqali kishilarni insofga chaqirish, podsho va uning xizmatchilarini saxiy, ochiq ko‘ngil, mehribon, adolatli, mehnatsevar, halol, pok bo‘lishga chaqirishga harakat qildi. Uning axloqiy qarashlarining shakllanishiga o‘zidan oldin yashab o‘tgan mutafakkirlarning, ikkinchidan, hayot, turmush taqozosi, uchinchidan,

Koshifiy Husayn Boyqaroga maslahatchi sifatida mamlakatdagi ijtimoiy muammolar muhokamasida qatnaganining ta'siri bo'lganini aytib o'tish lozim. Voiz Koshifiy, Husayn Boyqaroni ham adolat va insofga chaqiradi, saroydagi fisq-fasod, urushlarini, aysh-ishratlarni tanqid qiladi, boshqaruvda insonparvarlik, vatanparvarlik, saxiylik, adolatlilik kabi g'oyalarni ilgari suradi ilgari suradi. Husayn Voiz Koshifiy axloqiy ta'limotining falsafiy asoslari, "Axloqi Muhsiniy", "Axloqi Karim", "Futuvvatnomai Sultoniy", "Risolati Xotamia", "Tafsiri Husayniy" asarlarida mukammal bayon qilingan Koshifiy ilohiyotchi, voiz, shu bilan birgalikda yozuvchi, olim va faylasufdir. Koshifiy xalqqa, jamiyatga, kelajak avlodga xizmat qilgan inson yaxshidir va kishilarni hayotning qadriga, o'tayotgan umrni, vaqtning qadriga etishga chaqiradi. Uning nazdida, amal va davlatdan ko'zlangan asl maqsad xalqni himoya qilish va yurtni obod etishdir. Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" asarida boshqaruv uchun muhim bo'lgan ko'plab jihatlar ta'kidlanadi. Asar 40 bobdan iborat bo'lib odil shohlar, tadbirkor vazir va amirlar, sofdil mulozimlar haqida ajoyib ibratli fikrlar, nasihatu o'gitlar, shunga muvofiq qator rivoyatlar, hikoyatlar keltirilgan. Asarning 32-bobi "Siyosat bayonida" deb nomlanadi. U "harikki olamning madori siyosatdir, uni olamning sozu nosozligi asosiga nomzod qilganlar. Agar zabt etish va siyosat qilish bo'lmasa, barcha ishlar izdan chiqadi, agar adab berish va jazolash rasmi yo'q bo'lsa, muhim ishlar vayronlikka yuz qo'yadi"<sup>45</sup>deya ta'kidlaydi. Alloma boshqaruvni funksional jihatlariga, boshqaruv sohasida sub'ekt sifatida ishtirok etuvchilarga taalluqli madaniyatni hamda boshqaruv munosabatlarida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning madaniyatiga e'tibor qaratadi. Chunki boshqaruvchi tomonidan teshgishli me'yorlar, tartib – qoidalar, axloqiy normalarga rioya etilishi kuzatilsa-yu, ammo boshqaruvchi jamoada etarli darajadagi sifatlar bo'lmasa boshqaruvga putur etadi. SHuning uchun u xaloyiqni besh tabaqaga bo'linish va har biriga o'ziga xos munosabat bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. "Siyosat ikki xil bo'ladi: biri o'z nafsiga siyosat qilish, ikkinchisi o'zga kishiga siyosat qilish. O'z nafsiga nisbatan bo'lgan siyosat shuki, yomon sifatlarni o'zidan yo'qotish va yaxshi xulqlarni egallashdir. Boshqaga nisbatan siyosat esa yana ikkiga bo'linadi. Birinchisi, o'z a'yonlari va yaqinlari siyosati va ularni tartibga solish, ikkinchisi, umumxalq siyosatiligini<sup>46</sup> aytib o'tadi.[6] Asarda podsholik tartib qoidalari, davlat ishlarini yuritish rasmu rusumi, shartlari, raiyat va lashkarga munosabat, do'stu dushmaniajratish siyosati, chegaralarni qo'riqlash va ichki nizolar, fitnalarning oldini olish kabi ko'plab masalalar atrofida muhokama yuritilgan. SHuningdek, podshoh va yuksak martabali davlat arboblarning vazifalari, axloq-odobi, mulozimlari bilan munosabati ko'plab tarixiy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida yoritilgan. Koshifiy axloqqa oid tushunchalarni keltirar ekan unga amal qilishga oid Qur'oni Karim va hadislardan misollar keltiradi, shuningdek, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin

<sup>45</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний. Ахлоқий Муҳсиний. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2011. – Б.261-265.

<sup>46</sup> Ўша манба. – Б.261-265.

Rumiy asarlaridan ham tegishli lavhalar bilan asoslaydi. Koshifiy talqiniga ko‘ra, davlat ishida bosh talab odillik va tadbirkorlikdir. Adolat shohning ham, vaziru amirlarning ham asosiy axloqiy sifati bo‘lmog‘i lozim. “Axloqi Muhsiniy” asrining bobi “Adolat bayonida deb nomlanadi. “Adl-mamlakatni bezaydigan va qalblarga bag‘ishlaydigan chirog‘idir... Adolat qilish – bu mazlumlar ohini eshitish va ehson bilan majruhu nochorlar jarohatiga malham qo‘yishdir. Hadisda kelibdikim, podshohning bir soatlik adolati oltmish soatlik ibodatidan afzaldir, zero ibodatning natijasi faqat uni ado etganga etsa, adolatning foydasi esa xosu avom, katta-kichikka etadi va mamlakatning obodligi, qutu barakasi ham shundan. SHu bois adolatning savobi haddu hisobdan ziyod va qiyosdan tashqaridir”<sup>47</sup>.

Adolatning mazmunini nima tashkil etishi masalasiga to‘xtalib aytish joizki, uni o‘zi va boshqalar bilan muomalada me‘yorga amal qilish tashkil etadi. Bu haqida Husayn voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida adolatning ma‘nosi xalqning huquqiy tengligini ta‘minlashdir. Adl shunday ziynatdirki, u mamlakatga oroyish beradi; bir quyoshki, uning nuri bilan zulmat yorug‘likka aylanadi deya ta‘kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiyning axloq falsafasida siyosat odobi, davlatni boshqarishning axloqiy talablari, podshoh bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabat, jamoani idora qilish, insonni tarbiyalash muammolari etakchi o‘rin egallaydi. U adolat bo‘lmagan joydan norozilik, adolat, ziddiyat, karama-karshiligi paydo bo‘lishi mukarrarligini boshqaruv madaniyatida axloqiy fazilatlarning muhimligini ta‘kidlaydi.

Allomaning kasb odobi, kasbiy madaniyat, boshqarishni axloqiy madaniylashtirishga doir qarashlari, yondashuvlari, tavsiyalari ijtimoiy munosabatlar globallashuvi borayotgan hozirgi davrda ham muhim ahamiyatga ega. Rahbar faoliyatida bilim va etuk axloq uzviy ravishda bir-biri bilan bog‘lanishi: bilim narsalarning mohiyatini, ichki sababiyatlarini bilish imkonini beradi, axloqiy (ma‘naviyat) esa odamni yaxshi fazilatlarga davat etadi. Tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, mas‘uliyatlilik xislatlarini qaror toptirishga e‘tibor beriladi. “Futuvatnomai sultoniy” va “Axloqi Muhsiniy” asarlari besh yuz yil davomida axloq va odob dasturi sifatida qo‘ldan qo‘lga o‘tib kelingan. Ular bugun ham axloqiy merosimiz sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas”<sup>48</sup>.

## XULOSA

Koshifiyning ma‘naviy-axloqiy g‘oyalarini o‘rganish tabiiy va ijtimoiy hodisalar, insoniyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida yuz berayotgan o‘zgarish va o‘zgarishlar haqidagi yangi avlod g‘oyalarining kengayishiga, ularning bilimlarini

<sup>47</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний. Ахлоқий Муҳсиний. Ўзбекитон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2011. – Б.161-176.

<sup>48</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний. Ахлоқий Муҳсиний. Ўзбекитон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2011. – Б.7.

rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa jamiyat hayotidagi axloqiy qadriyatlar, kishilar bilan muomala madaniyati normalari va qoidalari, xulq-atvor va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Husayn Voiz Koshifiyning falsafa, axloq, voizlik, she'r san'ati, tibbiyot sohasida nafaqat o'ziga xos maktab yaratgan va u o'z shogirdlariga o'ziga xos ustoz-shogirdlik bo'yicha katta ma'naviy-madaniy meros qoldirgan. Koshifiyning kelajak avlodlarga qoldirgan ilmiy va madaniy merosi shaxsning ma'naviy dunyosini rivojlantirish, uning odob-axloqi, jamiyatdagi muomala madaniyati va o'zini tutish, insonni to'laqonli jamiyat a'zosi bo'lishiga qaratilgan. Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Futuvatnomai Sultoniy" kabi asarlari haligacha o'zining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Husayn Voiz Koshifiyning ijodi tahlili shuni ko'rsatadiki, buyuk olim odamlarni xayriya, halollik va adolat, sabr-toqat (bag'rikenglik) va totuvlik, do'stlik va o'rtoqlik, birodarlik va tenglik, burch va mas'uliyatni his qilish, kambag'allarga yordam berish, hurmat qilish kabi yaxshi fazilatlarni rivojlantirishga da'vat etgan. Shu bilan birga, u ushbu fazilatlar kundalik hayotda qanday namoyon bo'lishi kerakligini tushuntirishga harakat qilgan.

"Tarbiya" fanidan darsliklar tarkibiga yoshlar bilim qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirish, madaniyat darajasini ko'tarish va takomillashtirishga hissa qo'shadigan Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy mavzudagi asarlaridan namunalar kiritilsa yanada samarali tashkil etilishiga hissa qo'shilgan bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқий Муҳсиний. Тошкент, 2011. –Б.16.
2. Абдуҳалимов Б. Ахлоқий меросимиз ва китобат санъатининг ноёб намунаси/ Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи Муҳсиний.-Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. Б-122.
3. Маҳмудов Р. Хусайн Воиз Кошифий // Маънавият юлдузлари. -Т., 2001.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2019 yil, 22 iyun.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B.440.
6. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2013. – S.260.
7. Aliqulov H. O'rta Osiyo va Xuroson mutafakkirlarining ijtimoiy qarashida hurfikrlilik va antiklerikal g'oyalar (XIV-XV asrlar) // O'rta Osiyo xalqlari hurfikrliligi tarixidan. – Toshkent: Fan, 1990. –B.284
8. Xondamir. "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor" ("Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi"). –Toshkent: Fan, 1993. –B.134.

9. SHarafiddin Ali YAzdiy, Zafarnoma, Movarounnahr voqealari, 1360-1370 [tarjimon: O. Bo‘riev]. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1994. - B.8.
10. Abu Homid G‘azzoliy. Riyozatun nafs (Nafs tarbiyasi). – Toshkent: Movorounnahr, 2006. – 18 b.
11. Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. Minhojulqosidiyn (saodat izlovchilarga qo‘llanma). – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot- mantbaa birlashmasi, 2009. – 175 b.